



2023-yil « 1 » 11

846 - k - sonli

Toshkent shahri

**“O‘zagrosug‘urta” AJ tizimidagi vakant
lavozimlarga nomzodlarni tanlash tizimini
takomillashtirish to‘g‘risida**

“O‘zagrosug‘urta” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar filiali shuningdek, Boshqaruvning rahbar va mas‘ul lavozimlariga nomzodlarni ishga qabul qilishda suhbat o‘tkazishni samarali yo‘lga qo‘yish, tizimga malakali va salohiyatli kadrlarni jalb qilish maqsadida, **buyuraman:**

1. “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati tizimdagi lavozimlarga ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi **Nizom 1-ilovaga**, nomzodlarni ishga qabul qilish va boshqa lavozimga o‘tkazish bo‘yicha **Tanlov komissiyasi tarkibi** (matnda bundan buyon – Komissiya deb yuritiladi) **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Komissiyaga:

Jamiyatning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar filiallari (matnda bundan buyon – filial deb yuritiladi) boshqaruvchisi, boshqaruvchisining o‘rinbosari va bosh hisobchisi hamda sug‘urta markazlari menejeri lavozimiga tavsiya etilgan shuningdek, Boshqaruvning rahbar va mas‘ul lavozimlariga nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish;

suhbat jarayonida nomzodning siyosiy bilimi, huquqiy madaniyati va savodxonligi, dunyoqarashi, ishbilarmonligi, tajribasi hamda sug‘urta sohasiga oid bilim va ko‘nikmalari, shaxsiy fazilatlarini chuqur o‘rgangan holda xulosa berish vazifalari yuklansin.

Nomzodlar bilan suhbat jarayoniga tegishliligi bo‘yicha Jamiyat Boshqaruvining boshqa departament, boshqarma va bo‘lim rahbari ham jalb etilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Jamiyat Boshqaruvining Xodimlar bilan ishlash departamenti (Q. Eshbayev) filiallar tomonidan tavsiya etilgan nomzodlarni o‘rganish, hujjatlarini Komissiyaga kiritish uchun tayyorlash va suhbatni tashkil etish bilan bog‘liq masalalarga mas‘ul etib belgilansin.

4. Ushbu buyruq imzolangan kundan e‘tiboran Jamiyat Boshqaruvining 2022-yil 25-avgustdagi 378-k-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi

 **Sh. Rasulov**

“O‘zagrosug‘urta” AJ
Boshqaruvining 2023-yil
1-noyabrdagi 846-k-sonli
buyrug‘iga
1-ilova

Ishga qabul qilish vaqtida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi

NIZOM

Mazkur nizom “O‘zagrosug‘urta” AJda (bundan buyon matnda “Jamiyat” deb yuritiladi) ishga qabul qilish tizimini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirishda turlicha yondashuvlarni va qonun buzilishi holatlarini oldini olish hamda ishga qabul qilish va boshqa lavozimga o‘tkazish vaqtida tanlov o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

nomzod – jamiyatdagi bo‘sh (vakant) bo‘lgan muayyan ish o‘rnini (lavozimni) egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs;

malaka talablari – nomzodlarga nisbatan ish beruvchi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar.

2. Ishga qabul qilish bo‘yicha tanlovni o‘tkazish vaqtida nomzodlarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga bo‘lgan munosabati, e‘tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek ularning ishchanlik sifatleri va mehnati natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg‘ulotlar sohasida biror-bir to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek imtiyozlar berish kamsitish deb hisoblanadi va bunga yo‘l qo‘yilmaydi.

2-bob. Ishga qabul qilish vaqtida tanlovni tashkil etish va o‘tkazish

3. Ish beruvchi tanlovni jamiyatdagi bo‘sh (vakant) ish o‘rni uchun munosib nomzodlarni tanlash maqsadida tashkil etadi va o‘tkazadi.

4. Ishga qabul qilish vaqtida tanlovning o‘z vaqtida va sifatli tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta‘minlash uchun Boshqaruv raisining buyrug‘i bilan doimiy faoliyat yuritadigan tanlov komissiyasi (bundan buyon matnda Tanlov komissiyasi deb yuritiladi) tashkil etiladi.

5. Ishga qabul qilish vaqtida tanlov jamiyat tizimida mavjud bo‘sh (vakant) ish o‘rinlaridan kelib chiqqan holda o‘tkaziladi.

6. Tanlov komissiyasi tarkibi Boshqaruv xodimlari va tegishli departamentning malakali mutaxassislari orasidan kamida besh kishidan iborat va toq sonli tarkibda shakllantiriladi.

Bunda, Boshqaruv raisi yoki uning o‘rinbosari Tanlov komissiyasi raisi hamda Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash departamenti xodimi Tanlov komissiyasi kotibi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga kelishuv asosida Jamiyatning Kasaba uyushmasi qo‘mitasi vakillari ham kiritilishi mumkin.

7. Tanlov komissiyasi uning a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Tanlov komissiyasining qarori oddiy, ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va majlisda ishtirok etgan barcha a‘zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo‘lib qolgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

8. Tanlov komissiyasi tarkibiga nomzodning yaqin qarindoshi yoki tanlovning natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lgan yoxud tanlovning xolis o‘tkazilishiga ta’sir ko‘rsatadigan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

9. Tanlov komissiyasi quyidagi huquqlarga ega hisoblanadi:

tanlov o‘tkazish vaqtini belgilash;

tanlovning sifatli o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida komissiya tarkibiga professional va malakali mutaxassislarni jalb qilish;

malakali kadrlarning tanlab olinishini ta’minlash maqsadida tanlov tadbirlari o‘tkazilish jarayonini nazorat qilish.

10. Tanlov komissiyasi quyidagilarga majbur hisoblanadi:

nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o‘rganib chiqish;

nomzodning shaxsga doir ma’lumotlarini uning roziligisiz oshkor qilmaslik;

tanlovni o‘tkazish vaqtida nomzodlarga beriladigan savollarni sifatli va bo‘sh (vakant) ish o‘rni uchun belgilangan malaka talablariga muvofiq ishlab chiqish.

11. Tanlov quyidagi bosqichlardan iborat hisoblanadi:

tanlovning o‘tkazilishi to‘g‘risida e’lon berish;

nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o‘rganib chiqish;

nomzodni test, suhbat va (yoki) amaliy mashg‘ulot sinovlaridan o‘tkazish (bundan buyon matnda tanlov tadbirlari deb yuritiladi);

tanlov natijalarini e’lon qilish.

12. Nomzodlar Tanlov komissiyasiga mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq shakldagi ariza bilan yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi.

13. Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodning arizasi kelib tushgan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida unda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rganib chiqiladi.

14. Nomzod tomonidan ariza va ma'lumotlar mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq taqdim etilmagan bo'lsa yoki arizada tegishli ma'lumotlar to'liq ko'rsatilmagan yoxud noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodga kamchiliklarni bartaraf etib, qayta murojaat qilish mumkinligi to'g'risida ushbu ariza kelib tushgan kundan e'tiboran yetti ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda ma'lum qilinadi.

15. Tanlov tadbirlari boshlanishiga besh ish kunidan kam muddat qolganda murojaat qilgan nomzodlar ushbu tanlovda emas, balki keyingi tanlovda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

16. Tanlovda qatnashish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan nomzodlarga tanlov tadbirlari boshlanishidan besh kun oldin tanlov tadbirlarining boshlanish vaqti va joyi haqida Tanlov komissiyasi tomonidan xabar beriladi.

17. Tanlov davlat tilida, shuningdek nomzodning so'roviga ko'ra u tanlagan xorijiy tilda o'tkazilishi mumkin.

18. Nomzodning bo'sh (vakant) ish o'rnini uchun belgilangan malaka talablariga muvofiqligini, shuningdek uning ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasini aniqlash uchun Tanlov komissiyasi tomonidan suhbat o'tkaziladi. Shuningdek, Tanlov komissiyasi tomonidan boshqa lavozimga o'tkazish uchun nomzodlar bilan ham suhbat o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

19. Tanlov tadbirlari o'tkazilayotgan xonaga nomzodlar tomonidan mobil aloqa vositasi, kompyuter yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob, lug'at, shpargalka va boshqa materiallar olib kirish hamda foydalanish, shuningdek boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish taqiqlanadi.

Bunda, ushbu taqiqlangan materiallarni olib kirgan yoki foydalangan, shuningdek tanlov tadbirlari vaqtida boshqa nomzodlar bilan suhbatlashgan nomzod tanlov tadbirlarini o'tkazish tartibini buzgan deb hisoblanadi hamda dalolatnoma asosida tanlov tadbirlaridan chetlashtiriladi.

20. Tanlovning oshkora va xolis o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Tanlov komissiyasi tanlov tadbirlarini onlayn rejimda ovozli videotranslatsiya (Jamiyatning rasmiy veb-saytida yoki rasmiy ijtimoiy tarmoqlarida translyatsiya) qilishi kerak.

21. Tanlov natijasiga ko'ra suhbatdan muvofaqqiyatli o'tgan nomzod tanlov g'olibi hisoblanadi va ishga qabul qilinadi.

22. Tanlov natijalari u o'tkazilgan kundan keyin uch ish kunida e'lon qilinadi va Tanlov komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadigan, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomada qayd etiladi.

Bunda, bayonnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

bayonnoma raqami va qabul qilingan sanasi;
tanlovda ishtirok etgan komissiya a'zolari ro'yxati;
nomzodga tushgan savollar va ularga berilgan javoblarning mazmuni;
tanlov natijalari;
tanlov g'olibi.

3-bob. Yakuniy qoida

23. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvining
2023-yil 1-noyabrdagi
846-k-sonli buyrug‘iga
2-ilova

**“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvida tizimdagi bo‘sh ish o‘rinlariga ishga qabul
qilish va boshqa lavozimga o‘tkazish bo‘yicha tanlov komissiyasi
TARKIBI**

№	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Yusupov Alisher Nasirdjanovich	Boshqaruv raisining o‘rinbosari, Komissiya rahbari
2.	Axadov Bekzod Abdurafikovich	Boshqaruv raisining o‘rinbosari
3.	Boltayev Shuxrat Axmedovich	Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti bosh hisobchisi
4.	Jumayev Azimjon Abdisalomovich	Sug‘urta departamenti direktori
5.	Eshbayev Qahramon Karimovich	Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori
6.	Nosirov Maksud Tulkinovich	Moliya departamenti direktori
7.	Turamuratov Pulat Zarifovich	Komplayens nazorat departamenti direktori
8.	Sodiqov Behzodjon Abdisamadovich	Yuridik departament boshlig‘i
9.	Otaboyev Davron Yalg‘ash o‘g‘li	Xodimlar bilan ishlash departamenti yetakchi mutaxassisi, Komissiya kotibi

Izoh. Komissiya tarkibidagi shaxslar lavozimiga ko‘ra kiritiladi hamda boshqa ishga o‘tkazilgan yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda yangi tayinlangan yoki vakolati yuklatilgan shaxslar belgilanadi.